

"O'zkimyosanoat" AJ va "Linde group" kompaniyasi o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi

// 08.07.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/linde-group-kompaniyasi-urtasida-hamkorlik-shartnomasi-imzolandi>



Joriy yilning 6-iyul kuni "O'zkimyosanoat" AJ va Germaniyaning "Linde group" kompaniyasi o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolash marosimi bo'lib o'tdi. Unda "O'zkimyosanoat" AJ vakillari, "Linde group" kompaniyasining Yaqin Sharq va Sharqiy Yevropa bo'yicha prezidenti Oliver Pfann hamda Rossiya va MDH mamlakatlarida investitsiyalar bo'yicha vitse-prezidenti Tomas Hilkerlar ishtirok etishdi.



Imzolangan hamkorlik shartnomasi asosida "O'zkimyosanoat" AJ hamda "Linde group" kompaniyasi birgalikda, Toshkent viloyatida vodorod hamda ammiak ishlab chiqarishni tashkil etish loyihalarini amalga oshirishi ko'zlangan bo'lib, jismonan eskirgan ishlab chiqarish majmuasi o'rniga yangi, zamonaviy, energotejamkor vodorod ishlab chiqarish uskunasini o'rnatish hamda murakkab turdagi mineral o'g'itlarni ishlab chiqarish loyihasi doirasida ammiak ishlab chiqarish majmuasini tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.



Bundan tashqari, xorijiy hamkor bilan birgalikda "Navoiyazot" AJda umumiy qiymati 66,0 mln AQSH dollariga teng bo'lgan "Havoni taqsimlash uskunasini o'rnatish" loyihasini amalga oshirish maqsadida qo'shma korxonani tashkil etish bo'yicha tegishli hujjatlar kelishib olindi.

Ma'lumot o'rnida aytib o'tamiz, "Linde group" kompaniyasi sanoat va tibbiy gazlarni ishlab chiqarish bo'yicha dunyodagi yetakchi kompaniyalardan biri bo'lib, dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarida faoliyat yuritadi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati